# Navoiy viloyati Karmana tumanida 2021-2023 yillar oralig'ida amalga oshirilgan tashabbusli byudjet loyihalari tahlili

**Esanbekov Sunnat**

**Gulturayev Begzod**

**Chuliyev Abduvahob**

*Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti*

*" Moliya" fakulteti MMT-81 K guruh talabalari*

**Annotatsiya:** ***Navoiy viloyati Karmana tumanida 2021-2023 yillar oralig'ida amalga oshirilgan tashabbusli byudjet loyihalari tahlili*** *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori asosida amalga oshirilgan tashabbusli byudjet loyihalari haqida ma'lumotlar mavjud. Bu loyihalar, Navoiy viloyatini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida amalga oshirilgan.*

*Bu loyihalar quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilgan:*

***Ishbilarmonlik muhitini yaxshilash va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash**: Bu yo'nalish orqali aholi bandligini ta'minlash, mahallalarni ishsizlikdan xoli hududga aylantirish, yangi ish o'rinlarini tashkil etish va aholi daromadlarini oshirish maqsadida amalga oshirilgan.*

***Foydalanilmayotgan davlat aktivlari va tabiiy resurslar zaxiralaridan samarali foydalanish**: Bu yo'nalishda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirish uchun foydalanilmayotgan davlat aktivlari va mavjud tabiiy resurslar zaxiralaridan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish maqsadida loyihalar amalga oshirilgan.*

***Mahallalarda sanoat, hunarmandchilik, kasanachilik, chorvachilik, savdo va xizmat ko'rsatish yo'nalishlarida mikromarkazlarni tashkil etish**: Bu yo'nalishda mahallalarda ixtisoslashuvini hisobga olgan holda sanoat, hunarmandchilik, kasanachilik, chorvachilik, savdo va xizmat ko'rsatish yo'nalishlarida mikromarkazlarni tashkil etishni yanada jadallashtirish maqsadida loyihalar amalga oshirilgan.*

***Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer maydonlari va suv resurslaridan oqilona foydalanish**: Bu yo'nalishda qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishni ko'paytirish, yangi ish o'rinlari yaratish maqsadida loyihalar amalga oshirilgan.*

*Bu tashabbusli byudjet loyihalari, Navoiy viloyatini "kambag'allik va ishsizlikdan xoli hudud"ga aylantirish maqsadida amalga oshirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Tashabusli byudjet,ulushi, mahalliy byudjet , moliyalashtirish ,davlat byudjeti ,jamg'arma*

Tashabbusli yoki partisipator byudjetlashtirish — bu aholining tashabbuslarini hisobga olgan holda byudjet mablag'larining muayyan bir qismini sarflash bo'yicha ularning bevosita ishtirokida qarorlar qabul qilish hamda qabul qilingan qarorlarning amalga oshirilishini kuzatish amaliyotidir.So'nggi yillarda O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlar doirasida ijro hokimiyati organlari mas'uliyatini kuchaytirishga, Oliy Majlis va Xalq deputatlari Kengashlarining rolini oshirishga, shuningdek, barcha darajalarda muhokama qilish va qaror qabul qilishga fuqarolik jamiyati institutlarini jalb etishga ko'proq e'tibor qaratilmoqda. Byudjet sohasida byudjet shaffofligini oshirishga va fuqarolarni byudjet qarorlarini qabul qilishga jalb etishga qaratilgan mexanizmlar joriy etila boshlandi. Jahon amaliyotida ushbu maqsadlar uchun tashabbusli byudjetlashtirish – fuqarolar tomonidan ilgari surilgan takliflar (tashabbuslar, loyihalar) uchun byudjet mablag'larining bir qismini taqsimlash mexanizmi keng qo'llaniladi. Ushbu yo'nalishda BMT Taraqqiyot Dasturi so'nggi ikki yil ichida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga yordam ko'rsatib, mamlakatda tashabbusli byudjetlashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda

uslubiy va ekspert ko'magini ko'rsatmoqda.Quyidagi 1- jadval orqali biz Navoiy viloyati Karmana tumani tashabbusli budjetlashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar miqdori haqida bilib olishimiz mumkin

**1-jadval**

**Navoiy viloyati Karmana tumani tashabbusli budjetlashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar miqdori**[1]

(ming so'mda)

| T/r | Ko'rsatkich nomi | 2021-yil | 2022-yil | 2023-yil |
|---|---|---|---|---|
| 1. | Yil boshiga qoldiq | 0 | 1360689.0 | 1007480.5 |
| 2. | Hisobot davrida "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"ga o'tkazilgan mablag'lar | 2015189.0 | 7726791.4 | 18282168.3 |
| 3. | "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"dan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan | 654500 | 8080000.0 | 16650000.0 |
| 3.1. | *Bajarilgan ishlar uchun xisobvaraqlardan moliyalashtirilgan mablag'* | 654500 | 8080000.0 | 15337557.4 |
| 3.2. | *Hisobvaraqlardagi qoldiq* | 0 | | 1312442.6 |
| 4. | "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"da qoldiq mablag' | 1360689.0 | 1007480.4 | 2639648.8 |

Navoiy viloyati Karmana tumanida 2021-2023 yillar oralig'ida amalga oshirilgan tashabbusli byudjet loyihalari hisobotlarini o'rganish orqali quyidagi tahlillar keltirilgan. Tashabbusli byudjet loyihasi 2021 yildan boshlanganligi uchun 2021- yil boshidagi qoldiq **0** ming so'm , Hisobot davrida "Fuqarolar

[1] https://openbudget.uz/boards/reports

tashabbusi jamg'armasi"ga o'tkazilgan mablag'lar **2015189.0** ming so'm, shuningdek "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"dan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan mablag' **654500.0** ming so'm va yil oxiridagi "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"da qoldiq mablag' **1360689.0** ming so'mni tashkil etgan . 2022 yildagi yil boshidagi qoldiq esa 1360689.0 ming so'mni tashkil etgan Hisobot davrida "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"ga o'tkazilgan mablag'lar **7726791.4** ming so'm, shuningdek "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"dan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan mablag' **8080000.0** ming so'm va yil oxiridagi "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"da qoldiq mablag' **1007480.0** ming so'mni tashkil etgan .2023 yildagi yil boshidagi qoldiq esa **1007480.0** ming so'mni tashkil etgan Hisobot davrida "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"ga o'tkazilgan mablag'lar **18282168.3** ming so'm, shuningdek "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"dan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan mablag' **16650000.0** ming so'm, shulardan Bajarilgan ishlar uchun xisobvaraqlardan moliyalashtirilgan mablag' **15337557.4** ming so'm , Hisobvaraqlardagi qoldiq esa **1312442.6** ming so'm va yil oxiridagi "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"da qoldiq mablag' **2639648.8** ming so'mni tashkil etgan .

**2-jadval**

**Navoiy viloyati Karmana tumani tashabbusli budjetlashtirish natijasida amalga oshirilgan tadbirlar**[2]

| **T/r** | **Tadbirlar nomi** | **Moliyalashtirilgan takliflar soni** | | | **Sarflangan mablag' (ming so'mda)** | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | **2021-yil** | **2022-yil** | **2023-yil** | **2021-yil** | **2022-yil** | **2023-yil** |
| **Jami** | | **4** | **22** | **26** | 654500.0 | 12780000 | 28150000.0 |
| 1. | Hududiy ichki yo'llar | 1 | 13 | 5 | 360000.0 | 7800000.0 | 3680000.0 |
| 2. | Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlash | - | 4 | 17 | | 2540000.0 | 17270000.0 |
| 3. | Maktabgacha ta'lim muassasalarini ta'mirlash va jihozlash | - | | 2 | | | 2400000.0 |
| 4. | Sog'liqni saqlash muassasalarini ta'mirlash va jihozlash | - | 3 | 2 | | 1440000.0 | 2400000.0 |
| 5. | Boshqa ijtimoiy soha muassasalarini ta'mirlash va jihozlash | - | 1 | | | 500000.0 | |

[2] https://openbudget.uz/boards/reports

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 6. | Ichimlik suvi ta’minotini yaxshilash | - | 1 | | | 500000.0 | |
| 7. | Ko‘cha chiroqlarini o‘rnatish tadbirlari | - | | | | | |
| 8. | Hududlarni tartibga keltirish (obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish) | - | | | | | |
| 9. | Boshqa tadbirlar | 3 | | | 294500.0 | | |
| | | | | | | | |

Navoiy viloyati Karmana tumani tashabbusli budjetlashtirish natijasida amalga oshirilgan tadbirlarda 2021 yilda Jami 4 takliflarga **654500.0** ming so’m mablag’ moliyalashtirilgan, 2022-yilda esa bu ko’rsatkich takliflar soni 22 tani moliyalashtirilgan mablag’ miqdori **12780000.0** ming so’mni tashkil etgan ,2023 yilda qariyb 2.2 baravar oshgan ya’ni takliflar soni 26tani ajratilgan mablag’ qiymati **28150000.0** ming so’mni tashkil etgan..2022 yilda esa Hududiy ichki yo‘llarga 13ta loyiha uchun **7800000.0** ming so’m ajratilgan, Umumta’lim maktablarini ta’mirlash va jihozlash 4 ta loyihaga **2540000.0** ming so’m ,Sog‘liqni saqlash muassasalarini ta’mirlash va jihozlash uchun jami 3 ta loyihaga **1440000.0** ming so’m ajratilgan va boshqalar. 2023 yilda eng ko’p mablag’ ajratilgan soha Umumta’lim maktablarini ta’mirlash va jihozlash uchun 17 loyihaga **17270000.0** ming so’m ,hududiy ichki yo‘llarga esa **3680000.0** ming so’m ajratilgan

**3-jadval**

**Navoiy viloyati Karmana tumanida Fuqarolar tashabbusli jamg'armasi mablag'larining shakllanish manbalari**[3]

| **Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi mablag'larini shakllantirish manbalari** | | **2021-yil** | **2022-yil** | **2023-yil** |
|---|---|---|---|---|
| Tuman mahalliy budjeti tasdiqlangan umumiy xarajatlarning 5 foiz qismi miqdorida ajratilgan mabag'lar | | 0 | 6004222 | 3028842 |
| Mahalliy budjetining yil boshiga shakllangan Erkin qoldiq mablag'lari | | 0 | 0 | 0 |
| Tuman mahalliy budjeti qo'shimcha manbalarning 30 fozi miqdorida ajratiladigan mablag'lar | | 1943085 | 1722569.4 | 10253327.3 |
| Shu jumladan | Erkin qoldiq mablag'lari | 33361 | 344400 | 453000 |
| | Daromadlarning hisobot choraklari yakunlari bo'yicha aniqlanadigan prognozdan oshirib bajarilgan qismi | 1859724 | 1140604 | 1045931 |
| | Iqtisod qilingan mablag'lar | 0 | 237565.4 | 1539134.3 |
| Qo'shimcha ajratilgan | PQ-5250ga asosan | 0 | 0 | 0 |
| | PQ-409ga asosan | 0 | 0 | 0 |
| | PQ-117ga asosan | 0 | 0 | 6700000 |
| **Jami ajratiladigan mablag'lar** | | **1943085** | **4575791.4** | **24982167.8** |

[3] https://openbudget.uz/boards/reports

Navoiy viloyati Karmana tumanida Fuqarolar tashabbusli jamg'armasi mablag'larining shakllanish manbalari 2021-2023 yil tahlillari .2021-yilda Tuman mahalliy budjeti qo'shimcha manbalarning 30 fozi miqdorida ajratiladigan mablag'lar **1943085,0** ming so'm ajratilgan . Ushbu ko'rsatkich 2022-yilda quyidagi natijani qayd etgan **1722569,4** ming so'm ajratilgan .2023 yilda **10253327,3** ming so'm ajratilgan.2022-yil iqtisod qilingan mablag'lar **237565.4** ming so'mni tashkil etgan . 2023-yilda **1539134.3** ming so'm mablag'laglar iqtisod qilingan .

**4-jadval**

**Navoiy viloyati Karmana tumani tashabbusli budjetlashtirish natijasida amalga oshirilhan loyihalar tarkibi**[4]

| **T/r** | **Tadbirning qisqacha mazmuni (sohasi)** | **Jami to'plagan ovozlar soni** | **Moliyalashtirish uchun ajratilgan mablag' miqdori** (ming so'm) |
|---|---|---|---|
| **2021-yil** | | | |
| 1. | | | |
| 2. | | | |
| 3. | | | |
| 4. | | | |
| 5. | | | |
| 6. | | | |
| 7. | | | |

[4] https://openbudget.uz/boards/reports

| | | | |
|---|---|---|---|
| 8. | | | |
| 9. | | | |
| 10. | | | |
| **2022-yil** | | | |
| 1. | Karmana tumaniNurafshon MFYPodkron ko’chasiPodkron qabristoniga boradigan yo’lniasfalt qilish | 2303 | 800000.0 |
| **2.** | Karmana tuman tibbiyot birlashmasiga zamonaviy, to’liq jixozlangan, ko’p funktsiyali UZI apparat olish | 2163 | 450000.0 |
| **3.** | Karmana tumani Jaloyir MFY Yuqori bug’ ko’chasini asfaltlashtirish | 1357 | 400000.0 |
| **4.** | Karmana tumani Azamat MFY Azamat ko’chasini asfaltlashtirish | 943 | 400000.0 |
| 5. | Karmana tumani Varq MFY Sangbur qishlog’ini asfaltlashtirish | 927 | 800000.0 |
| 6. | Karmana tumani Do’rman MFYBog’ishamol ko’chasini hamda Do’rman QVPga kirish qismi va old+ Qismini asfaltlashtirish | 737 | 650000.0 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 7. | Karmana tumani Degaron MFYArabxona qishlog'i ko'chalarini asfaltlashtirish | 636 | 700000.0 |
| 8. | Karmana tumani 1-sonli umumta'limmaktabini deraza romlarinialmashtirish, issiqliktizimi hamda yong'in xavfsizligi xovuzinita'mirlash | 624 | 500000.0 |
| 9. | **Jami** | **9690** | **4700000.0** |
| 10. | | | |
| **2023yil** | | | |
| 1. | Karmana tumani Pahlavon M.F.Y O'rikzor ko'chasini 2000 metr qismini asfaltlashtirish uchun mablag' ajaratish | 5378 | 1137564.2 |
| 2. | Karmana tumanidagi 5-sonli DIUM tom qismini, eshik derazalarini ,issiqlik tizimi sinf xonalari uchun lenoliumni ta'mirlash | 5317 | 1188757.0 |
| 3. | Karmana tumani Arabxona M.F.Y Bobodehqon ko'chasini asfaltlashtirish | 5228 | 1139071.1 |
| 4. | Karmana tumanidagi 7-sonli umumiy o'rtata'lim maktabiga zamonaviy quyosh panellari bilan jihozlangan faollar zali hamda bolalar oshxonasini qurish | 5121 | 1188551.0 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 5. | Karmana tumanidagi 28-sonli umumiy o'rtata'lim maktabining moddiy texnik bazasini rivojlantirish uchun kerakli jihozlar harid qilish | 4838 | 1102901.6 |
| 6. | Karmana tumanidagi 27-sonli umumiy o'rtata'lim maktabining moddiy texnik bazasini rivojlantirish uchun kerakli jihozlar harid qilish | 3187 | 494389.3 |
| 7. | Karmana tumanidagi 3-sonli umumiy o'rtata'lim maktabiga sport zal qurish | 3015 | 1200000.0 |
| 8. | Karmana tumani tibbiyot birlashmasiga jarrohlik amaliyotlari o'tkazish uchun zamonaviy apparatlar sotib olish | 2724 | 1074450.0 |
| 9. | Karmana tumanidagi 2-sonli Informatika va axborot texnologiyalar ixtisoslashtirilgan davlat umumiy o'rta ta'lim maktabiga sun'iy qoplamali futbol maydoni qurish | 2061 | 294476.0 |
| 10. | Karmana tumanidagi 6-sonli umumiy o'rtata'lim maktabining moddiy texnik bazasini rivojlantirish uchun kerakli jihozlar harid qilish | 2024 | 694879.7 |
| 11. | Karmana tumanidagi 7-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkilotini mukammal ta'mirlash | 2021 | 1167553.0 |
| 12. | Karmana tumanidagi 7-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabida qo'shimcha sinf | 2687 | 1300000.0 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | xonalariga ehtiyoj mavjudligi sababli ,texnologiya,rus tili va to'garak xonalarini tashkil etish uchun qo'shimcha bino qurishga mablag' ajratish | | |
| 13. | Karmana tumani Arabxona M.F.Y Bobodehqon 1- ko'chasini asfaltlashtirish | 2554 | 1212410.6 |
| 14. | Karmana tumanidagi 4-sonli umumiy o'rtata'lim maktabining moddiy texnik bazasini rivojlantirish uchun kerakli jihozlar harid qilish | 2543 | 1019221.2 |
| 15. | Karmana tumanidagi 11-sonli umumiy o'rtata'lim maktabining moddiy texnik bazasini rivojlantirish uchun kerakli jihozlar harid qilish | 2421 | 995888.5 |
| 16. | Arabxona M.F.Y Bobodehqon ko'chasiga 3.0 km masofadan ichimlik suvi 2022 -yil 2 mavsum ) | 1550 | |
| 17. | Varq M.F.Y Sangbur qishlog'ini asfaltlashtirish (2022 yil 2-mavsum | 1619 | |
| 18. | Bolalar va O'smirlar sport maktabi (2022-yil 2-mavsum ) | 1740 | |
| 19. | Navoiy viloyat hokimligi YaBX IK (7-maktab 2-mavsum ) | 2766 | |
| 20. | **Jami** | **58794** | **15210113.2** |

Navoiy viloyati Karmana  tumani tashabbusli budjetlashtirish natijasida amalga oshirilhan loyihalar tarkibi 2022 -yilda eng ko'p ovoz to'plagan loyihalarga  Karmana tumaniNurafshon MFYPodkron ko'chasiPodkron qabristoniga boradigan yo'lniasfalt qilish uchun 2303 ta ovoz berilgan. Ushbu loyihaga **800000.0** ming so'm mablag' ajratilgan . Karmana tuman tibbiyot birlashmasiga zamonaviy, to'liq jixozlangan, ko'p funktsiyali UZI apparat olish uchun 2163 ta ovoz to'plagan va loyiha qiymati **450000.0** ming so'm ajratilgan .2023 yilda ng ko'p ovoz to'plagan loyihalardan biri Karmana tumani Pahlavon M.F.Y O'rikzor ko'chasini 2000 metr qismini asfaltlashtirish uchun mablag' ajaratish uchun 5378 ta ovoz yig'ilgan va **1137564.2** ming so'm mablag' ajratilgan ,Karmana tumanidagi 5-sonli DIUM tom qismini, eshik derazalarini ,issiqlik tizimi sinf xonalari uchun lenoliumni ta'mirlash uchun 5317 ta ovoz yig'ilgan moliyalashtirish summasi **1188757.0** ming so'mni tashkil etgan.

Xulosa qilib aytganda, Tashabbusli byudjetlashtirish fuqarolarning takliflarini hisobga olgan holda turli ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal qilish uchun mahalliy byudjet mablag'larining bir qismini taqsimlash va bu mablag'larni sarflash yo'nalishlarini aniqlash bo'yicha ularning bevosita ishtirokida qarorlarni qabul qilishga xizmat qilmoqda.

Navoiy viloyati Karmana tumanida 2021-2023 yillar oralig'ida amalga oshirilgan tashabbusli byudjet loyihalari tahlilidan shunday xulosa qilish mumkinki, ajratilgan mablag'lar asosiy qismi Hududiy ichki yo'llar asfaltlashtirish, Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlash ,. Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlash va boshqa loyihalarga ajratilgan.Hisobotlardan ko'rinib turibdiki Navoiy viloyati Karmana tumanidagi asosiy muammolar Hududiy ichki yo'llarni asfaltlashtirish , Umumta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlash va shu kabi bir qator muammolar bor ekan . Moliyalashtirilgan loyihalar soni ham yildan yilga oshib bormoqda. Ya'ni 2021-yilda Karmana tumanida 4 loyihaga mablag' ajratilgan bo'lsa , 2022 yilda 22 ta

loyihaga mab'lag'lar ajratilgan va 2023 yilda bu ko'rsatkich biroz kamaygan 26 tani (o'tgan yilga nisbatan 118.1 %ga ko'p) tashkil etgan .

**Foydalanilgan adabiyotlar :**


1. Ваҳобов АВ, Маликов ТС. Молия. Дарслик/Тошкент Молия институти. Тошкент:"Шарқ. 2010;804.
2. Malikov, T., and Haydarov NH. Byudjet. "O'quv qo 'llanma." Toshkent:"Iqtisod-moliya 84 (2008).
3. TS Malikov, O Olimjonov. Moliya. - O 'quv qo 'llanma. Toshkent: Iqtisod-moliya, 2018
4. Malikov T, Haydarov N. Budjet daromadlari va xarajatlari. O'quv qo 'llanma, Toshkent:"IQTISOD-MOLIYA. 2007.
5. Маликов ТС. Ҳайдаров НҲ "Молия: умумдавлат молияси". Ўқув қўлланма. 2009.
6. Malikov TS. Byudjet-soliq siyosati. T.:"Iqtisod-moliya. 2019.
7. Malikov, T. S., & Olimjonov, O. O. (2019). Moliya: Darslik.
8. Malikov T, Haydarov N. Budjet: tizimi, tuzilmasi, jarayoni. O'quv qo'llanma, Toshkent "IQTISOD-MOLIYA. 2008.
9. Ўроқов У. Бюджет маблағларидан самарали фойдаланишни таъминлаш йўллари. Т. 2017
10. У Ўроқов. Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишнинг устувор йўналишлари- Science and Education, 2022
11. У Ўроқов, Д Ускенбаева. Ўзбекистонда ташаббусли бюджетни жорий этишнинг ташкилий-ҳуқуқий асослари - Science and Education, 2022
12. Ўроқов У, Иргашев И, Ғайбуллаев О. Фуқаролар иштирокидаги маҳаллий бюджет. 2022
13. UY O'roqov, JA Yomg'Irov. Mahalliy byudjetlar barqarorligini ta'minlash masalalari - Central Asian Research Journal for Interdisciplinary …, 2022

14. Ўроқов УЮ. Маҳаллий бюджетлар шаффофлиги ва очиқлигини таъминлашнинг устувор йўналишлари. Бизнес-Эксперт журнали. 2020;4.
15. Ўроқов У. Ғайбуллаев О. Ўзбекистон Республикасида бюджет тизими ва жараёни: ўқув қўлланма. Тошкент: Baktria press. 2016.
16. Уроков У. Махаллий бюджетлар мустакиллигини оширишга оид назарий карашлар. Республика илмий-амалий конференция. ТМИ 2020.
17. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар молиявий барқарорлигини белгиловчи кўрсаткичлар. 2020
18. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар даромадларини шакллантиришнинг самарали йўллари. 2017
19. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар даромад базасини кенгайтириш масалалари. Республика ўқув юртлараро конференция тўплами. ТМИ-2009 йил (Vol. 18).
20. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақилигини оширишнинг замонавий муаммолари. Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари тўплами. ТМИ 2022 йил.
21. У Ўроқов.Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақиллигини оширишнинг ҳуқуқий асослари.- Science and Education, 2023
22. G‘aybullayev O, O‘roqov U. O‘zbekiston Respublikasida budjet tizimi va jarayoni. O‘quv qo ‘llanma. T.: Baktriapress. 2016;168.
23. Xaydarov N. Soliqlar va soliqqa tortish masalalari. O'quv qo'llanma. Toshkent: Akademiya. 2007.
24. Хайдаров НХ. Маҳаллий бюджетлар: муаммо ва инновацион ечимлар. Ўзбекистон статистика ахборотномаси” илмий электрон журнали. 2020.
25. Хайдаров Н. Доходы местных бюджетов и пути их укрепления.“Молия” илмий журнали. 2022.

26. Хайдаров Н. Маҳаллий бюджетларнинг даромад манбалари. халқаро илмий-амалий конференция 2022.
27. Хайдаров Н. Маҳаллий бюджетлар даромадини барқарорлаштириш йўллари. халқаро илмий-амалий конференция мақолалар тўплами (Vol. 2022).
28. IB Masharipov.Relevance of civil society in the modern world ,attitude and solutions.International Journal of Inclusive and Sustainable Education 2023